

Suyuqlikdagi nanozarralar xususiyatlarini aniqlovchi laboratoriya tizimi ishga tushirildi


Bugungi kunda Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, “biz milliy tiklanishdan milliy yuksalishga erishishni o’z oldimizga eng muhim va ustuvor vazifa qilib qo’ydik”. Milliy yuksalishga erishish yo’lidagi muhim omillardan biri, albatta, ilm-fandir. Shuning uchun ham mamlakatimizda Davlatimiz Rahbari tomonidan bu soha vakillariga jiddiy g’amxo’rlik ko’rsatilmoqda va ilmiy-tadqiqot muassasalari yangicha ko’rinish kasb etmoqda.

Buni birgina O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-noyabrdagi “Ilmiy-tadqiqot muassasalarining infratuzilmasini yanada mustahkamlash va innovatsion faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida” gi PQ-3365-son qarorining qabul qilinishida ko’rish mumkin. Bu qaror asosida bosqichma bosqich ilmiy-tadqiqot muassasalari moddiy-texnik bazasi yangilanmoqda hamda keng ko’lamdagi tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shunday yangilanishlardan biri O’zR FA Ion-plazma va lazer texnologiyalari institutida Buyuk Britaniyadan olib kelingan NanoSight LM 10 laboratoriya qurilmasining ishga tushirilishi bo’ldi.



Ushbu qurilma yorug'likning dinamik sochilishi yordamida bir vaqtning o'zida nanzarralarning gidrodinamik diametrlari, diffuziya koeffitsienti va nanzarralarning suyuqliklardagi konsentratsiyasini aniqlash imkoniyatiga ega.



Qurilma yordamida 1 ta namunaning xususiyatlarini aniqlash uchun 7-10 daqiqa talab etiladi.

Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, bu eksperimental qurilma hozirda O'rta Osiyoda yagona hisoblanadi.